

---

## TAYINLOV



Raximov Rasuljon Muxtorovich Tadbirkorlar va ishbilarmonlar Harakati – O‘zbekiston liberal demokratik partiyasi Qo‘shtepa tumani Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari – apparat rahbari raisi lavozimiga tayinlandi.

Rasuljon Raximov 1972 yilda Qo‘shtepa tumanida tug‘ilgan. 1996 yilda Andijon muhandislik iqtisodiyot institutini tamomlagan.

Ish faoliyati davomida 1996-1997 yillarda Qo‘shtepa tumani Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi mutaxassisi, 1997 yili Qo‘shtepa tumani istiqbolni belgilash va statistika bo‘limi iqtisodchisi, 1997-2004 yillarda Qo‘shtepa tumani istiqbolni belgilash va statistika bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi, 2004-2008 yillarda iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i, 2008 yilda Qo‘shtepa tumani hokimining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi, 2008-2010 yillarda Qo‘shtepa tumani Ijtimoiy ta‘minot bo‘limi boshlig‘i, 2010-2015 yillarda Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Qo‘shtepa tumani bo‘limi boshlig‘i, 2016-2017 yillarda Qo‘shtepa tumani hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub‘ektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatish “Yagona darcha” markazi ro‘yxatga olish bo‘limi boshlig‘i, 2018 yilda Qo‘shtepa tumani aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori kabi turli lavozimlarda faoliyat olib borgan.

Oilali, turmush o‘rtog‘i – uy bekasi, to‘rt nafar farzandi bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-04-12 16:47:00